



BOYSUNNING STRATEGIK IMKONIYATLARI

Rasulov Hakim Mamanovich,

Termiz davlat universiteti professori,
siyosiy fanlar nomzodi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Surxon vohasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadigan Boysun hududining strategik imkoniyatlari kompleks va tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida hududning qulay geografik joylashuvi, boy tabiiy resurslari, noyob ekologik muhiti, turizm salohiyati, ayniqsa etnoturizm va ekoturizm yo‘nalishlaridagi imkoniyatlari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish istiqbollari, mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish omillari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar:

Boysun, strategik rivojlanish, hududiy iqtisodiyot, turizm salohiyati, tabiiy resurslar, qishloq xo‘jaligi, barqaror taraqqiyot, etnoturizm, ekoturizm.

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ БАЙСУНА

Аннотация:

В данной статье всесторонне и систематически анализируются стратегические возможности Бойсунского района, играющего важную роль в социально-экономическом развитии Сурханского оазиса. В ходе исследования всесторонне рассмотрены благоприятное географическое положение региона, богатые природные ресурсы, уникальная экологическая среда, туристический потенциал, особенно возможности в области этнотуризма и экотуризма. Также изучены перспективы развития сельского хозяйства, факторы расширения местного производства.

Ключевые слова:

Бойсун, стратегическое развитие, региональная экономика, туристический потенциал, природные ресурсы, сельское хозяйство, устойчивое развитие, этнотуризм, экотуризм

STRATEGIC OPPORTUNITIES OF BOYSUN

Abstract:

This article comprehensively and systematically analyzes the strategic possibilities of Boysun region, which plays an important role in the socio-economic development of the Surkhan oasis. In the course of the research, the region's convenient geographical location, rich natural resources, unique ecological environment, tourism potential, especially in the areas of ethnotourism and ecotourism, were covered in detail. Also, prospects of agricultural development, factors of local production expansion were studied.

Key words:

Boisun, strategic development, regional economy, tourism potential, natural resources, agriculture, sustainable development, ethnotourism, ecotourism.

Kirish.

Surxon zamini tarixan madaniyatlar, qadriyatlar, diniy e'tiqodlar muloqot maydoni bo'lib kelgan. Bu zaminda saqlanib qolingan zardushtiylik va buddizm e'tiqodiga mansub arxeologik yodgarliklar, milliy davlatchiligimizning tarixiy asosi bo'lgan manzilgohlar Surxondaryo hudud tarixda ham strategik nuqtalardan bo'lganligini ko'rsatadi. Shuningdek, islom dini va ta'limotiga juda katta ta'sir ko'rsatgan allamolarni voyaga yetkazgan zamin sifatida ham yuksak ma'naviyat salohiyatini namoyon qilgan.

Surxondaryo viloyati tarkibidagi Boysun hududi o'zining tabiiy, madaniy va iqtisodiy salohiyati bilan ajralib turadi. Hududiy rivojlanishda strategik joydashuv, mahalliy resurslar va geografik omillar, inson salohiyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, Boysunning O'zbekiston ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotidagi imkoniyat va salohiyatini o'rganish va uni ishga solish dolzarb hisoblanadi. Boysun tumanining asosiy strategik imkoniyatlarni 1) energetika va gaz-kimyo sanoati; 2) Transport-logistika va tranzit imkoniyati; 3) Turizm va madaniy meros bilan bog'liq imkoniyatlari; 4) Qishloq, o'rmon xo'jaligi va chorvachilik; 5) farmotsevtika sanoati va dorivor o'simliklarni etishtirish imkoniyati yo'nalishlarida tahlil qilish mumkin. Bugungi global iqtisodiy munosabatlardagi ziddiyatli murakkab jarayonlarlar mamlakatlar ana shu kabi o'z ichki imkoniyatlaridan oqilona va samarali foydalanish lozimligini ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar tahlili:

Hududiy iqtisodiyot va strategik rivojlanish masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Mishel Porter o'z tadqiqotlarida hududlarning raqobatbardoshligi ularning ichki resurslariga bog'liqligini ta'kidlaydi. Shuningdek, UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, Boysun hududi "insoniyatning nomoddiy madaniy merosini saqlab qolgan noyob hududlardan biri" sifatida baholanadi. O'zbekiston Prezidenti Farmon va Qarorlarida, Vazirlar mahkamasining Boysun tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlariga qaratilgan 709-sonli Qarorida hududning strategik imkoniyatlari bilan bog'liq ustuvor masalalarga e'tibor qaratilgan. O'zbekistonlik olimlar ham bu hududning arxeologik, turizm va etnografik salohiyati bilan bog'liq tizimli tadqiqotlarni olib bormoqdalar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning bir qator zamonaviy va an'anaviy usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usullari orqali Boysun hududining strategik imkoniyatlari

alohida omillar kesimida o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi va ta'sir darajasi aniqlandi. Shuningdek, statistik tahlil asosida hududning iqtisodiy salohiyati, o'sish sur'atlari, qishloq xo'jaligi va turizm sohalari rivojlanish dinamikasiga oid ma'lumotlar chuqur tahlil qilindi. Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ishonchliligi, xolisligi va amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar.

Boysun janubiy hududda joylashgan bo'lib, transport va savdo aloqalarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarga ega. Bugungi kunda ham Yangi O'zbekiston davlat siyosatida, ayniqsa tashqi iqtisodiy aloqalarini yanada kengaytirishda, xususan nafaqi yurtimizni, balki Markaziy Osiyo mintaqasini Janubiy va Sharqiy Osiyo bilan bog'lovchi muhim bo'g'in sifatidagi o'rni qayta tiklanmoqda. Shu bois, davlatimiz rahbari Surxondaryoga tashriflarida Yangi O'zbekiston taraqqiyotida o'ziga xos strategik ahamiyat kasb etadigan hudud sifatida vohani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning zaruriyatiga alohida e'tibor qaratgan edi. **“Surxonni rivojlantirish Yangi O'zbekistonning janubiy tayanch ustunini mustahkamlash demakdir”¹** – deb hududning strategik imkoniyatlari qanchalik kengligini ta'kidlagandi. Har qanday mamlakatning chiqqara hududlari tashqi iqtisodiy faollikni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Boysun geografik joylashuvi, tabiati, yer osti va usti boyliklarining ko'pligi bilan mamlakat taraqqiyotining istiqbollari belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boysun hudud tabiiy resurslarga juda boy. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-avgustdagi “2019-2022-yillarda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'ridasi”gi 709-sonli Qarorida hududa aniqlangan yer osti va usti sahiralarni o'zlashtirish bilan bog'liq ustuvor vazifalar qo'yilgandi. Unga ko'ra, “Boysun tumani o'zining yer osti va yer usti xom ashyo zaxiralari, o'simlik dunyosi, tarixiy va sayyohlik maskanlariga, alohida qadriyatlarga boyligi bilan sanoat ishlab chiqarish va turizm sohasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lib, hududda tabiiy gaz, toshko'mir, sement xom ashyosi, ohaktosh, g'isht xom ashyosi, pardozbop toshlar, dolomit, keramzit, gips va angidrit va boshqa xom ashyo zaxiralari, shuningdek, dorivor o'simliklarning 2100 dan ortiq turi aniqlangan”². Bu Boysunning mamlakat taraqqiyotidagi strategik imkoniyatlarini yanada oshiradigan omildir. Ushbu resurslar O'zbekistonning sanoat-industrial imkoniyatlarini oshiradi. Eng muhim mavjud resurslardan samarali foydalanish, tabiiy muhitning barqarorligiga erishi lozim. Shundagina iqtisodiy o'sishning

asosiy drayveriga aylanadi.

Boysun zamini energiya manbalariga juda boy. Uni o'zlashtirish va mamlakat iqtisodiyotida, xalqimiz hayoti farovonligini ta'minlashdagi o'rni hukumat qarorining ustuvor yo'nalishlarida ham belgilangan. “Tumandagi mavjud resurslardan samarali foydalanish, sanoat, transport, tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va xizmatlar sohasini rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish hamda aholi turmush darajasini yanada yaxshilash”³ bo'yicha vazifalar belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyot Strategiyasida Boysun hududini kompleks rivojlantirish bilan bog'liq chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, “O'zbekiston mustaqilligining 25 yilligi” gaz koni negizida gazni qayta ishlash zavodi, gaz-kimyoy majmuasi barpo etilish jarayonining boshlanganligi hududning mamlakat hayotidagi o'rni nechog'lik katta ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, “M-25” koni hududida tarkibida neft saqlovchi suyuqlikning (neft suyuqligi) yer yuziga tabiiy ravishda chiqishining o'zi hududning strategik imkoniyatlari kengligining yana bir asosidir. Bu haqda 2026-yil 5-yanvarda O'zbekiston Energetika vazirligi rasmiy ma'lumot (bayonat) bergan edi. Shu bilan birga mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish jarayoni bilan bog'liq muammolar ham saqlanib qolmoqda. Barchaga ma'lum Boysun tumanidagi “Mustaqillikning 25 yilligi” (M25) konidagi texnogen holatning to'la bartaraf etilgan yo'q. Mamlakatimiz rahbari Surxondaryoga tashrifida bu muammoga ham e'tibor qaratib, “biz avariyan ham to'xtatamiz, Surxondaryo iqtisodiyotiga katta turki beradigan loyihani ham boshlaymiz”⁴ – deb majmuadagi texnologik murakkab masalaga hamkorlar bilan ilmiy yechim topilgani qayd etib o'tdi.

Boysunda qishloq xo'jaligi an'anaviy tarzda shakllangan. Hududda tarixan chorvachilik, asalarichilik, bog'dorchilik rivojlangan. Yangi O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar hududlarning ishga solinmagan imkoniyatlari ko'pligini ko'rsatmoqda. Bu borada Prezident SHMirziyoyev alohida qayd etganidek, “viloyatda foydalanilmay turgan yana bir katta imkoniyat yaylovlar ekani ta'kidlandi. Jumladan, Boysunda 197 ming gektar yaylov borligi, agar Darband daryosidagi nasoslar tiklanib, suv chiqarilsa, 10 ming gektar yaylovni foydalanishga kiritish imkoni”⁵ mavjud. Tumanning tog' va tog'oldi hududlarining organik mahsulotlar yetishtirish imkoniyatini beradi.

Ma'lumotlarga qaraganda “respublikamizda ro'y-xatda o'tgan va biokimyoviy tarkibi o'rganilgan 600 turga yaqin tabiiy holda o'sadigan dorivor o'simliklar mavjuddir. Ularning aksariyati tog' o'rmonlarida

1 Mirziyoyev Sh.M. Surxondaryo viloyatini kompleks rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokama qilindi.// <https://president.uz/uz/lists/view/8980>

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2019-2022-yillarda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'ridasi”gi 709-sonli Qarori. 23.08.2019. // <https://lex.uz/ru/docs/4486135>

3 Yuqoridagi manba.

4 <https://www.gazeta.uz/uz/2026/02/27/m-25/>

5 Mirziyoyev Sh.M. Surxondaryo viloyatini kompleks rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokama qilindi.// <https://president.uz/uz/lists/view/8980>



tarqalgan. Ushbu dorivor o'simliklardan 230 turining xom-ashyosi farmatsevtika sanoati ehtiyojlari uchun tayyorlanadi, ko'pchiligi madaniylashtirilgan holda yetishtiriladi va ularning xom-ashyosi asosida 254 turdagi yaqin dorivor preparatlar tayyorlanadi¹. Boysuntog' yon bag'irlarida o'sadigan turli shifobaxsh giyohlardan farmatsevtika sanoatida foydalanish va aholi salomatligini mustahkamlash yo'lida foydalanish imkoniyatining kengligida namoyon bo'ladi. "Boysun-farm" erkin iqtisodiy zonasini tashkil etilishi shifobaxsh o'simliklarga boy, ekologiyasi sof Boysunni farmatsevtika sanoati markaziga aylantirishda, turli noyob dorivor giyohlardan sifatli dori-darmon ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dorivor giyohlardan sanoat plantatsiyasi yaratish mo'ljallanayotganligi hududning xalqimiz kelajak istiqbolida qanchalik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-iyuldagi 542-son qarori bilan mamlakatimizdagi bir qator erkin iqtisodiy zonalar bilan birga "Boysun-farm" erkin iqtisodiy zonasi ham tashkil qilingan edi. Lekin keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Termiz" erkin iqtisodiy zonasi hududini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 21-dekabrda PF-37-son Farmoni asosida "Бойсун-фарм" эркин иқтисодий зонаси "Termiz" erkin iqtisodiy zonasi tarkibiga k'ushilgan. Prezident farmonida Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida farmatsevtika sohasiga qo'shimcha ravishda boshqa sanoat yo'nalishlarida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hisobiga loyihalarni amalga oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish, "Termiz" erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini yanada kengaytirish maqsadi nazarda tutilgandi.

Shu bilan birgalikda Boysunning sof tabiatini asrash masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratish kerak. Ayniqsa tog' o'rmonlar ekotizim barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Aynan havoning musaffo bo'lishi, suvni filtrlanishi, tuproq qatlamining eroziyadan saqlashda o'rni beqiyosligini tabiatshunoslar juda yaxshi biladi. Bugun global ekologik muvozanat buzulgan dunyoda insoniyatni qiynayotgan muammolardan biri ham "kelajak avlod uchun nimani meros qoldiramiz?" degan savol atrofida bo'lib qolmoqda. Shunday ekan Boysunning mamlakat taraqqiyotidagi strategik imkoniyatlaridan oqilona foydalangan holda, uning tabiatini ham saqlash, kelajak avlodga qoldirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Buning uchun esa Boysunning o'simlik va hayvonat dunyosi himoya qilinishi, ekoturizm imkoniyatlaridan ratsional foydalanish madaniyati shakllanishi, "Boysun-farm" kabi korxonalar vositasida dorivor o'simliklarni ko'paytirish chora-tadbirlari va imkoniyatlarini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda turizm sohasiga e'tibor kuchayganligi sababli Boysuning turistik imoniyatlari ortib bormoqda. Boysun tumanida ko'p asrlik tarix

va boy madaniy merosga ega tarixiy maskanlar juda ko'p. Aynanshunday geografik va tranzit joylashuviga ko'ra qulay maskanlardan biri Sayrob mahallasiga "Turizm qishlog'i" moqomini tasdiqlovchi sertifikat berilgan. Hududning betakror tabiati, milliy urf-odatlar, boy madaniy merosi mahalliy va xorijiy sayyohlarning e'tiborini torta oladi. Ayniqcha Boysun bahori festivalining har ikki yilda xalqaro miqyosda muntazzam o'tkazilayotganligi, tog' turizmini rivojlantirishning imkoniyatlar kengligi va bu borada amaliy ishlarning boshlanganligi e'tiborga loyiqdir. Madaniy turizm hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omilidan hisoblanadi. Ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatini beruvchi Xo'ja Gur-gur ota mavzesi, bu yerda 500 metrlik tik qoya, chuqur kan'onlar, dinozavrlarning toshga aylangan izlari, magnitli tog' va balandligi 3700 metrga yetuvchi qoyalarning mavjudligi, O'zbekistonning tarixiy-madaniy sayyohlik salohiyatini oshirishga xizmat qiladigan Uzundara, Qo'rg'onzal, Tumanqo'rg'on (Poyqo'rg'on) kabi yodgorliklari juda ko'p. Biroq, ularning aksariyati turli sayyohlik qo'llanmalari va xaritalarda aks etmagan. Bu bilan bog'liq amaliy ishlarni yanada kengaytirish orqali xorijiy va mahalliy turistik yo'nalishlarni kengaytirish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa va takliflar.

Darhaqiqat, Boysun mamlakatimizning strategik imkoniyatlari katta hududi hisoblanadi. Uning turizm, qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslar, farmatsevtika sohasidagi salohiyatini samarali ishga solish orqali mamlakat barqaror iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Shuningdek hududiy infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali mamlakatning investitsiya muhitini yaxshilash va innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkoniyati yanada kengayadi.

1 Абдуназаров Е. Сурхондарёнинг доривор ўсимликлари. Термиз-2017. –Б.3.